



XORIJY TILLARNI O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR NAZARIYANING AMALIYOTGA TATBIQI

mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani

OLIY TA'LIMDA "DOGME: TEACHING UNPLUGGED" USULIDAN FOYDALANGAN HOLDA TALABALARNING NUTQ RAVONLIGINI OSHIRISH

Rustamova Rayxona Xamza qizi

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Ingliz tili 3-fakulteti 1-bosqich talabasi

email: rayhonarustamova133@gmail.com

Shukurova Shohsanam Qaxramon qizi

Ilmiy rahbar

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Ingliz tili amaliy fanlar №3 kafedrasi katta o'qituvchisi

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15178902>

Annotatsiya: Ushbu maqola oliy ta'lim muassasalari o'qituvchilariga ingliz tilini bilish darajasi o'rta va undan yuqori bo'lgan talabalarning nutq savodxonligini rivojlantirish uchun foydali metodni taqdim etadi. Mazkur resursda hozirgi davrda innovatsion o'qitish metodlaridan biri hisoblangan "Dogme: teaching unplugged" usuliga chuqurroq nazar tashlanadi. Ta'lim jarayonida yengil materiallardan foydalanib erkin suhbat asosida dars o'tish talabalar orasida qay darajada muvaffaqiyatli bo'lishi hamda talabalarni qay darajada o'ziga jalb qila olishi imkoniyatlari batafsil tahlil qilib chiqiladi. Oldindan rejalashtirilmagan muloqot, rivojlanayotgan til ko'nikmalarini to'g'ri yo'naltirish va talaba mazkazlashgan ta'lim olish muhiti ingliz tilida erkin va qiyinchiliklarga duch kelmasdan gapira olish qobiliyatiga sezilarli hissa qo'shadi. Ushbu maqola o'qituvchilarni ushbu metoddan samarali foydalanishning o'ziga xos xususiyatlari va imkoniyatlari bilan ta'minlash orqali talabalarning ingliz tilini o'zlashtirish darajalarini yanada oshirishni nazarda tutadi.

Kalit so'zlar: Dogme ELT, erkin o'qitish, kommunikativ til o'rganish, tabiiy ravishda rivojlanuvchi til, talaba markazlashgan o'qitish, nutq ko'nikmalari, innovatsion metod, erkin muloqot, suhbat qurish, minimal o'qitish.

Ingliz tili chet til sifatida o'rgatiladigan (EFL) davlatlarda ingliz tilida suhbatlashish ko'nikmalarini o'rgatish va rivojlantirish o'qituvchilar uchun katta muammo bo'lib, suhbat jarayoni davomida talabalar duch kelishi mumkin bo'lgan muammolarni hal qilish uchun yechimlar zarur. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-son, 2020-yil 29-oktabrdagi "Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-6097-son farmonlari ijrosini ta'minlash maqsadida yuqorida ta'kidlab o'tilgan muammoning yechimi sifatida "Dogme" metodining imkoniyatlarini o'rganish hamda amaliyotda tatbiq etish bir necha afzalliklarni olib



XORIJIY TILLARNI O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR NAZARIYANING AMALIYOTGA TATBIQI

mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani

kelishi mumkin. 2000-yilda ingliz tilshunosi Scott Thornbury tomonidan taklif qilingan ushbu yondashuv, uning samaradorligi va o'ziga xos jihatlarini o'rganishga oid keng tadqiqotlar bo'lishi lozim. Dogme ta'limoti ingliz tilini o'qitish jarayonida yagona nazariya yoki uslubga tayanmasdan, aksincha, amaliyotda realist bo'lish orqali o'qitish g'oyasini taqdim etadi. Bunday "darsliklarsiz yondashuv" o'qituvchilarning mashg'ulot kitoblariga, ya'ni, an'anaviy o'qitish tizimiga bog'lanib qolmasdan darsni talabalar qiziqishlariga mos tayyorlangan topshiriqlar bilan tashkil etishni taqozo etadi. Norasmiy ravishda olib boriladigan o'zaro suhbatlar orqali talabalar bilimini mustahkamlashga yordam beradi. Dogme, shuningdek, Teaching Unplugged (O'qitishning erkin usuli) deb ham atalib, innovatsion ta'lim falsafasidir. Dogme o'qituvchini yakka tarzda, aniqrog'i, talabalardan uzilgan holda dars berish yukidan ozod qilib, jarayon davomida ular o'rtasida mustahkam aloqa o'rnatishga yordam beradi. Qisqa qilib aytganda, "Dogme" usuli til o'qituvchisi rolini muloqotni to'g'ri yo'lga qo'yuvchi, olib boruvchi sifatida ta'kidlash orqali o'rganilayotgan til tabiiy ravishda shakllanishi mumkin bo'lgan muhitni yaratishga yordam beradi. Shuni ta'kidlash lozimki, mazkur usul axborot texnologiyalarining rivojlanishi bilan o'qituvchilarning yangi davrda muvaffaqiyat qozonishiga yordam bera olish imkoniyatiga ega, chunki u boshqa til o'qitish metodlari bilan uyg'unlashib, moslashishi va integratsiyalashishi mumkin.

Dogme metodiga ko'ra, o'qituvchilar darslik kitoblarga haddan tashqari tayanib qolmasliklari kerak va mazkur metodning uchta asosiy tamoyilini hisobga olgan holda talabalar o'rtasida o'zaro muloqotni boshlashlari lozim. Buning uchun, avvalo, o'qituvchilardan har doim ham sinfga batafsil dars rejasi bilan kelish talab qilinmasligi kerak, aksincha, o'qituvchilar asosiy e'tiborini talabalarining fan bilan bog'liq ehtiyojlarini o'rganishga yo'naltirishlari maqsadga muvofiqdir. Bu fikrdan kelib chiqib Dogme o'quv materiallari va texnologiyaga qarshi degan chalkash fikrlarga bormaslik kerak. Uning asl mohiyati ingliz tilini kommunikativ usulda o'qitish nuqtai nazaridan talabalarga tabiiy muloqot orqali fikr almashishga yordam berishdir. Dogme metodining qo'llanilishi sinf muhitini monoton holatdan chiqarib, yanada mazmunli va qiziqarli shaklga olib keladi.

Dogme metodining o'nta asosiy prinsiplari mavjud:

1. **Interaktivlik:** Til o'rganishning eng muqobil yo'li bu o'qituvchi va talabalar o'rtasidagi va o'zaro talabalar o'rtasidagi interaktivlikdir. Buning sababi shundaki, kitobdagi topshiriq va masalalarni ko'rib qo'yish orqaligina talabalarni



XORIJIY TILLARNI O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR NAZARIYANING AMALIYOTGA TATBIQI

mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani

jarayonga qiziqtirish biroz mushkul. Ammo, mavzu yuzasidan olib boriladigan o'zaro suhbatlar ularning e'tiborini tortishi aniq.

2. **Ishtirok:** Talabalar asosan o'zlari yaratgan kontentga ko'proq qiziqish bildirishadi va hech kim majburlamasam ham o'zlari xohlab darsda ishtirok etishadi.

3. **Dialogik jarayonlar:** Til o'rganish ijtimoiy va dialogik hodisa bo'lib, bilim birgalikda olib borilgan suhbatlar orqali yanada mustahkamlanadi.

4. **Qo'llab-quvvatlangan suhbatlar:** O'rganish birgalikda amalga oshadi. Bunda talaba va o'qituvchi birgalikda bilim va ko'nikmalarni hosil qiladilar. O'qituvchi talabalarni suhbat davomida kuzatib borib, kerakli joyida yo'l-yo'riq ko'rsatadi.

5. **Tilning tabiiy ravishda yuzaga kelishi:** Talabalarning til va grammatikaga doir barcha bilimlari va ularni qiynayotgan kamchiliklar talabalar muloqotga kirishgandagina yuzaga chiqadi. Bu tilni shunchaki "egallash"dan qochib uni to'g'ridan-to'g'ri amaliyotga tadbiiq etish orqali sodir bo'ladi.

6. **Imkoniyatlar bilan ta'minlash:** O'qituvchining roli til o'rganish imkoniyatlarini optimallashtirishdir. Bu "paydo bo'layotgan" tilga e'tibor qaratish orqali amalga oshiriladi. Demak, o'qituvchi nutqi davomida doimiy ravishda xatolar qilayotgan talabalarni diqqat bilan tinglashi, ularni to'g'irlashga imkoniyat yaratishi lozim.

7. **Fikr erkinligi:** Talabaning o'ziga xos dunyoqarashi va bilimi bilan birga uning fikrlari ham tan olinishi darkor. Suhbat davomida bildirilgan fikrga kekin qarshilik ko'rsatish talabaning kelgusi darslardagi faoliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

8. **Erkinlik:** Talabalar va o'qituvchilar nashr etilgan materiallar va darsliklardan ozod qilinish orqali o'z boshqaruviga ega bo'lishadi. Bunda o'qituvchi asosiy nazariy bilimni berib bo'lgandan so'ng, darslikda berilgan soddaroq topshiriqlar talabalar darajasiga maqbul keladigan, ularga yanada manfaatli bo'ladigan topshiriqlar bilan almashtirilgan holda dars davom ettiriladi. O'g'zaki, ya'ni nutq ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan mashg'ulotlar qancha ko'p bo'lsa shuncha yaxshi.

9. **Aloqadorlik:** Materiallar (masalan, matnlar, audio va videolar) o'qituvchilarga, ularning turmush tarziga aloqador bo'lishi kerak. Bu orqali talabalarning ingliz tilidan kundalik hayotda foydalanish qobiliyatlari ancha takomillashadi va yangi o'rganilgan so'z va iboralari tez-tez hayotga tatbiiq etilganligi sabab yaxshiroq esda qoladi.



XORIJIY TILLARNI O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR NAZARIYANING AMALIYOTGA TATBIQI

mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani

10. **Tanqidiy foydalanish:** O'qituvchilar va talabalar nashr etilgan materiallar va darsliklardan tanqidiy ya'ni, madaniy va mafkuraviy xatoliklarni anglaydigan tarzda foydalanishlari kerak.

Thornbury tomonidan "Dogme-ning uchta ustuni" deb ta'riflangan asosiy prinsiplar ham mavjud bo'lib, ularga quyidagilar kiradi:

Suhbatga asoslangan o'qitish. Dogme tizimida suhbat til o'rganishning markaziy elementi hisoblanadi, chunki suhbat tilning asosiy va universal shaklidir. Bunda ta'lim jarayoni ijtimoiy o'zaro aloqani rag'batlantiruvchi kommunikatsiyani yuqori baholaydi. Dogme til o'rganish jarayonini o'quvchi va o'qituvchi o'rtasidagi o'zaro aloqada qurilgan ko'nikma sifatida ko'radi. Shu nuqtai nazardan, o'qitish - bu ikki tomon o'rtasidagi suhbat sifatida qaraladi. Shunday qilib, Dogme, Tharpning "eng to'g'ri yo'lda o'qitish uchun suhbatlashish kerak; haqiqiy suhbatlashish - o'qitishdir" degan fikrini aks ettiradi.

Yengil materiallar yondashuvi. Dogme yondashuvi o'quvchilarning yaratgan materiallarini nashr etilgan materiallar va darsliklardan afzalroq deb hisoblaydi, shuningdek, o'qituvchilarni darsliklardan foydalanmaslikka chorlaydi.

Tilning tabiiy ravishda o'zlashtirilishi. Dogme til o'rganishni uni shunchaki egallash jarayonidan farqli o'laroq yaralish jarayoni sifatida ko'radi. Til o'rganilishi ikki yo'l bilan paydo bo'ladi. Birinchidan, darsdagi faoliyatlar talabalar o'rtasida "hamkorlikdagi kommunikatsiya"ga sababchi bo'ladi. Ikkinchidan, talabalar tilning hali ularga o'qitilmagan jihatlarini kashf etishadi. O'qituvchining roli tildan foydalanish ko'nikmalarining paydo bo'lishini osonlashtirish, talabalarni til bilan shug'ullanishga rag'batlantirish, o'qishni ta'minlash uchun yordam berishidan iborat bo'lishi kerak. O'qituvchi buni turli usullar bilan amalga oshirishi mumkin, jumladan, rag'batlantirish, takrorlash va qayta ko'rib chiqish kabi.

Dogme ELT yondashuvi o'rganish jarayonini yanada samarali va interaktiv qilishga olib keladigan o'qitish yondashuvidir. Aniqrog'i, bu usul orqali o'qituvchilar talabalarni dars jarayonida faol ishtirok etishga undaydi. Chunki mavzu talabalar qiziqishlariga asoslangan tarzda boyitilib boriladi. Yuqori ta'limdagi o'quvchilar nuqtai nazaridan, bunday yondashuv o'quvchilarni dars muhokamasida ko'proq gapirishga undash uchun qo'llanilishi mumkin. Ushbu yondashuv o'qituvchilar/ma'ruzachilarga talabalarning darajasiga qarab sinfda foydalanish uchun ko'plab faoliyatlarni taqdim etadi. Darsda ishlatiladigan mavzu, o'qituvchi/ma'ruzachi tomonidan ishlatilayotgan kurs kitobi yoki o'quv rejasiga aloqador holda talabalar bilan muhokama qilinishi mumkin. Xulosa qilib aytganda,



XORIJIY TILLARNI O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR NAZARIYANING AMALIYOTGA TATBIQI

mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani

Dogme ELT yondashuvi O'zbekistonda talaba-o'quvchilarning darajasi va o'qituvchilar/ma'ruzachilarning ushbu turdagi sinfni amalga oshirish qobiliyatini hisobga olgan holda qo'llanilishi ancha talabalarning yaxshi natijalarga erishishlariga olib kelishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Gökmen, M. F. (2024). Enhancing English conversational skills in Dogme ELT approach: A self-regulation perspective. *Journal of Language Education and Research*, 10(2), 577-601.
2. Meddings, L., & Thornbury, S. (2022, May 31). What Dogme feels like. *Humanising Language Teaching Magazine*. Retrieved from <http://old.hltnag.co.uk/nov03/sart1.htm>
3. Meddings, L., & Thornbury, S. (2009). *Teaching unplugged: Dogme in English language teaching*. Delta.
4. Meddings, L., & Thornbury, S. (2002). Dogme and the coursebook. *Modern English Teacher*, 11(1), 36-40. Retrieved from <https://web.archive.org/web/20090815103345/http://www.thornburyscott.com/tu/MET3coursebook.htm>
5. Meddings, L., & Thornbury, S. (2009). *Teaching unplugged: Dogme in English language teaching*. Peaslake, UK: Delta.
6. Nobre, C. (2024, April 28). Dogme in language teaching: How can it transform ELT? *Unpublished manuscript*.
7. Nguyen, N. Q., & Bui Phu, H. (2020). The Dogme approach: A radical perspective in second language teaching in the post-methods era. *Journal of Language and Education*, 6(3), 173-184. <https://doi.org/10.17323/jle.2020.10563>
8. Yanti, G. S. (n.d.). Dogme ELT: The possibility to use the approach to students in higher education. *Unpublished manuscript*.
9. Wikipedia contributors. (n.d.). *Dogme language teaching*. Wikipedia. Retrieved March 9, 2025, from https://en.wikipedia.org/wiki/Dogme_language_teaching